
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Kholmuradova L.E., Axmadova G.K.	Games for developing communicative skills in primary school	507
Axmadaliyeva X.A.	The effectiveness of developing life skills among grade 10–11 students through the CLIL approach	517
Abdurasulova N.A.	Fostering professional readiness among tourism students through contextualized English language learning	527
Ismailov Y.N.	Intangible cultural heritage as an object of didactic authenticity in German language teaching (a comparison of Germany and Uzbekistan)	535
Djurayeva M.Sh.	Project tasks based on comparative analysis of culturally situated communication in English speaking classes	543
Rakmankulova N.Kh.	Pedagogical conditions for developing the cognitive competence of future teachers through facilitative interaction	553
TRANSLATION		**564**
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	Translation strategies for culture-bound units in Chinese spring festival greetings into Uzbek	565
Uzakova L.A.	Translation issues of wedding-related phraseological units and the degree of equivalence	573
Mamatqulova L.B., Salisheva Z.I.	National and cultural concepts in Chinese mid-autumn festival (中秋节) greetings and their translation into Uzbek	582
Akhmedova A.N., Mirzayeva M.B.	Contextual semantics of literary portrait units and their functional correspondence in translation	590
Akhmedova A.N., Batirova Kh.E.	Grammatical and Syntactic Transformations in the Translation of Short News Items of Higher Education Institutions between Uzbek and English	601
HISTORY		**609**
Namazov A.T.	Uzbekistan 1930–1939: the period of the Latin alphabet	610
CONTENTS		**615**

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

The Lingua Spectrum
Volume 10, October 2026

Translation issues of wedding-related phraseological units and the degree of equivalence

Uzakova Lola Anvarovna
lola.uzakova.tea@gmail.com
Senior Lecturer, Doctor of Philosophy in Philology (PhD),
International Institute of Food Technology and Engineering

Annotation *The article examines the translation issues of wedding-related phraseological units and their degree of equivalence from linguocultural and translation-studies perspectives. The study describes how English and French wedding-related expressions are rendered into Uzbek, considering their semantic, connotative, and culturally bound features. Alongside analytical-descriptive and comparative-semantic methods, the analysis employs R. Brislin's back-translation method. The Uzbek counterparts of "black-sheep brother", "a huge financial burden", and "Se faire passer la corde au cou" are systematized, and their degree of equivalence is presented in tables. The findings show that literal translation of wedding phraseology often causes a loss of cultural connotations, whereas selecting equivalents conforming to target-language norms ensures translation naturalness and adequacy. Where lacunae exist, expressions are analytically explained to reveal their national-cultural basis. The role of context and stylistic requirements in choosing equivalents is also highlighted. The results can be applied in translation studies, phraseology, and linguoculturology.*

Keywords *Translation, phraseological unit, wedding, equivalence, back-translation, linguoculturology*

To'y bilan bog'liq frazeologizmlarning tarjima masalalari va ekvivalentlik darajasi

Uzakova Lola Anvarovna
lola.uzakova.tea@gmail.com
Katta o'qituvchi, f.f.f.d (PhD),
Oziq ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada to'y marosimlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning tarjima masalalari hamda ularning ekvivalentlik darajasi lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz va fransuz tillaridagi to'yga oid iboralarning o'zbek tiliga o'girilishi, ularning semantik va konnotativ xususiyatlari hamda madaniy jihatdan chegaralangan ma'nolari yoritiladi. Tahlil jarayonida analitik-deskriptiv va qiyosiy-semantik usullar bilan bir qatorda R. Brislin tomonidan asoslangan teskari tarjima (back-translation) metodidan unumli foydalanilgan. "Black-sheep brother", "a huge financial burden" va "Se faire passer la corde au cou" iboralarining o'zbekcha muqobillari tizimlashtirilib, ularning ekvivalentlik darajasi maxsus jadvallarda aks ettirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'y frazeologizmlarini so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha madaniy konnotatsiyaning yo'qolishiga olib keladi, maqsadli tilning lisoniy me'yorlariga mos keladigan frazeologik ekvivalentlarni tanlash esa tarjimaning tabiiyligi, aniqligi hamda adekvatligini to'liq ta'minlaydi. Lakunalar*

mavjud bo'lgan hollarda iboralarning ma'nolari tahliliy izohlanib, ularning milliy-madaniy asosi atroflicha ochib beriladi. Shuningdek, ekvivalent tanlashda kontekst va uslubiy talablarning o'rni ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari tarjimashunoslik, frazeologiya va lingvokulturologiya sohalarida amaliy va nazariy jihatdan qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar *Tarjima, frazeologizm, to'y, ekvivalentlik, teskari tarjima, lingvokulturologiya*

Вопросы перевода фразеологизмов, связанных со свадьбой и степень их эквивалентности

Узакова Лола Анваровна
lola.uzakova.tea@gmail.com
Старший преподаватель,
Доктор философии по филологическим наукам (PhD),
Международный институт пищевой технологии и инженерии

Аннотация *В данной научной статье рассматриваются актуальные вопросы перевода фразеологических единиц, связанных со свадебным обрядом, и степень их эквивалентности с лингвокультурологической и переводоведческой точек зрения. В ходе исследования описывается перевод свадебных фразеологизмов английского и французского языков на узбекский язык, а также рассматриваются их семантические, коннотативные и культурно обусловленные особенности. Наряду с аналитико-описательным и сопоставительно-семантическим методами в работе успешно использован метод обратного перевода (back-translation), обоснованный Р. Бреслином. Узбекские соответствия устойчивых выражений "black-sheep brother", "a huge financial burden" и "Se faire passer la corde au cou" систематизированы, а степень их эквивалентности наглядно отражена в таблицах. Результаты исследования показывают, что буквальный перевод свадебных фразеологизмов нередко приводит к утрате важных культурных коннотаций, тогда как выбор фразеологических эквивалентов, соответствующих языковым нормам языка перевода, обеспечивает естественность, точность и адекватность перевода. При наличии лакун значения выражений подробно поясняются аналитически с раскрытием их национально-культурной основы. Также показана важная роль контекста и стилистических требований при выборе эквивалента. Результаты исследования могут быть успешно применены в переводоведении, фразеологии и лингвокультурологии.*

Ключевые слова *Перевод, фразеологизм, свадьба, эквивалентность, обратный перевод, лингвокультурология*

O'tgan asrning so'nggi choragida tarjimashunoslikning avtonom fan maqomini egallashi va tizimli institutsional shakllanishi sohadagi nazariy-metodologik yutuqlarning

qonuniyatli natijasi hisoblanadi. Mazkur soha global intellektual makonda dinamik taraqqiy etib, XXI asrda o'zining evolyutsion rivojlanish bosqichlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. O'zining mohiyatiga ko'ra fanlararo xususiyatga ega bo'lgan tarjimashunoslik quyidagi sohalarning nazariy metodologiyalarini integratsiya qiladi: lingvistika va adabiyotshunoslik, gnoseologiya va antropologiya, psixologiya va kognitologiya, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar, global kommunikatsiya va pragmatik aspektlar.

Tarjima jarayoni o'zga madaniy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beruvchi muhim kommunikativ vositadir. Maqsadli tildagi lisoniy birliklar va adabiy janr namunalari tarjima qilinmas ekan, ular o'zga tillarda so'zlashuvchi auditoriya uchun intellektual mulk hamda axborot obyekti sifatida namoyon bo'la olmaydi. Til – asl matndagi semantik va pragmatik mazmunni maqsadli tilga ko'chiruvchi asosiy omil sanaladi; shu bois, til va tarjima fenomenlari o'zaro uzviy bog'liqdir. M.Masubelele nuqtayi nazariga ko'ra, "insoniyat o'rtasidagi lisoniy differensiallashuv ya'ni turli tillarga bo'linish subyektiv va obyektiv omillar majmuasi natijasida yuzaga kelgan fundamental fenomen hisoblanadi. Tarjima jarayoni esa mazkur lisoniy to'siqlarni bartaraf etish, xalqaro kommunikativ disbalansni muvozanatlash hamda global muloqot tizimini qayta tiklashga xizmat qiluvchi kompensator mexanizm sifatida institutsionallashgan" (Masubelele, 2011; 105–123).

Tarjima nazariyasida retsipient til qabul qiluvchilar uchun tashqi lingvomadaniyatlarga ochiladigan "ma'rifiy xazinalari" hosil bo'ladi. Binobarin, adekvat translyatsiyasiz manba tiliga mansub bo'lgan hech bir lisoniy-madaniy birlik, xoh u folklor namunasi bo'lsin, xoh murakkab diskursiv struktura, o'zga tilli auditoriyaning perseptiv doirasiga kirib bora olmaydi. Til – asl matndagi semantik hamda konnotativ axborotni maqsadli retsipient tiliga transformatsiya qiluvchi umumiy aloqa vositasidir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, til hamda tarjima bir-biri bilan uzviy va ajralmas ontologik aloqaga ega.

Tarjima aynan lingvistik to'siqlarni bartaraf etish hamda verbal muloqotni tiklovchi kompensator mexanizm sifatida vujudga kelgan. Shuningdek, matnni qayta ishlash davomida tarjimon strategik qaror qabul qilish zaruriyati, ya'ni ikki yo'nalishdan birini tanlash – polyarizatsiya masalasi bilan to'qnashadi. Bu jarayonda u yo asl matndagi lisoniy va madaniy normalarga nisbatan qat'iy ekvivalentlikni saqlashga intiladi, yoki yakuniy translyat – tarjima matni faoliyat ko'rsatadigan maqsadli lingvomadaniyatning sotsiomadaniy konvensiyalariga moslashadi.

Ko'p yillardan buyon jahon tarjimashunoslik doiralari diqqat markazida bo'lib kelayotgan nazariya va amaliyot bog'liqligi masalasi ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lgan. Sohaga tamal toshini qo'ygan olimlar quyidagilardir: E. Nida va C.R. Taber, J.C. Catford (Ketford), M. Baker (Beyker), A. Chesterman, A. Pym (Pim), M.A.K. Halliday (Hollidey), B. Hatim va I. Mason (Meyson), D. Robinson, H. Vermeer (Vermir), R. Schulte (Shulte) va J. Biguenet (Nida & Taber, 1969; Catford, 1965; Baker, 2006; Chesterman, 1989; Pym, 2014; Halliday, 2001; Hatim & Mason, 1997; Robinson, 1997; Vermeer, 1989; Schulte & Biguenet, 1992).

Tarjimashunoslikning konseptual rivojlanish bosqichlari tahlili natijasida sohaning matnga asoslangan, falsafiy-metodologik, lisoniy, funksional, ijtimoiy-madaniy hamda sistemaviy-iyerarxik yondashuvlarni qamrab oluvchi yetti asosiy nazariy yo'nalishi tizimlashtirildi (Hutauruk et al., 2023). Yuqorida qayd etilgan nazariy yo'nalishlar tarjima transformatsiyalari, texnikasi hamda metodologik tamoyillarining evolyutsion taraqqiyoti uchun fundamental baza bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur nazariy qarashlarning amaliy in'ikosi sifatida tarjima jarayonidagi lisoniy va lingvokultural strategiyalar fundamental ahamiyat kasb etadi. Xususan, L. Venuti klassifikatsiyasiga ko'ra, forenizatsiya (foreignization) strategiyasi qo'llanilganda,

tarjima jarayoni asl matnning lisoniy arxitektonikasi hamda manba madaniyat paradigmasiga to‘liq subordinatsiya qilinadi (bo‘ysundiriladi). Aksincha, domestikatsiya (domestication) strategiyasi tanlanganda, maqsadli tilning (TL) lisoniy me’yorlari ustuvorlik kasb etib, matn retsipient idrokiga muvofiq chuqur semantik-stilistik transformatsiyaga uchraydi (Venuti, 1995; 366).

K.V. Lyuven-Zvart konsepsiyasiga binoan, har qanday tarjima akti va qaror qabul qilish jarayonlari muayyan regulyativ normalar tizimi tomonidan determinallashadi (Van Leuven-Zwart, 1991; 208). Agar tarjimon maqsadga yo‘naltirilgan / target-oriented yondashuvni tanlasa, manba tiliga xos lisoniy-uslubiy qonuniyatlar tizimli ravishda transformatsiya qilinadi hamda matnni o‘girilayotgan til me’yorlariga moslashtirish uchun substitutsiya / o‘rin almashish metodidan foydalaniladi.

L. Venuti talqinida original matndagi ekzotizm va “begonalik” / foreignness darajasini minimallashtirishga xizmat qiluvchi ushbu translyatsion model “interpretativ o‘zlashtirish” sifatida tavsiflanadi. Domestikatsiya jarayoni diskursda normallashtiruvchi va neytrallashtiruvchi funksiyalarni bajarib, o‘zga madaniy qadriyatlarni maqsadli madaniyat kognitiv maydonidagi konseptlar vositasida qayta ifodalaydi. Natijada, muallifning individual lisoniy “ovozi” va uslubiy avtonomiyasi maqsadli til muhitiga adaptatsiya qilinishi oqibatida o‘zining autentik xususiyatlarini transformatsiyaga qurbon qiladi (Venuti, 1995; 353).

B. O‘Keeffe zamonaviy tarjimashunoslik taraqqiyotini tahlil qilar ekan, sohaning hamon ekvivalentlik paradigmasi ta’siridan to‘liq xalos bo‘la olmaganini qayd etadi. Muallifning ta’kidlashicha, “tarjima jarayoni go‘yo miltillab turgan “identiklik ufqi” sari intiladi; bu intellektual makonda semantik mazmunning mutlaq transferiga erishiladi, axborot yo‘qotilishiga barham beriladi va natijaviy matn asl nusxaning aynan reproduksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi” (O‘Keeffe, 2019; 230). B.O‘Keeffe ushbu metafora orqali tarjimonning ekvivalentlikni ta’minlashga doir metodologik intilishlarini hamda uning talqin strategiyasidagi “identiklik ufqi”ga yo‘naltirilganligini planetar miqyosdagi gravitatsion qonuniyatlar bilan qiyosiy tahlil etadi.

Ferdinand de Sossyurning lingvistik konsepsiyasida tilga tizimli-strukturaviy yondashuv ustuvorlik qiladi va u semiotik tabiatga ega bo‘lgan belgilar majmuasi sifatida talqin etiladi. Shu bois, olimning tilshunoslik nazariyasida “belgi” / sign tushunchasi markaziy kategorial birlik va fundamental metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur deterministik yondashuv tarjimashunoslik sohasi uchun ham o’ta dolzarbdir: tarjimon manba matn leksikasini verifikatsiya qilish jarayonida lisoniy birliklar o‘rtasidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlarni korrekt aniqlashi hamda ushbu aloqalar negizida adekvat ekvivalentlikni ta’minlashi lozim. Mazkur masalaning ahamiyati to‘yga aloqador frazeologizmlarning, xususan, tarjimalarda va ekvivalentliklarini topishda yanada ortadi.

To‘yga oid frazeologizmlarning semantik tarjimadagi tahlili alohida ilmiy qat’iyat va aniqlikni talab etadi, xususan, bu siraga “bayram” va “tantana” kabi tushunchalarni ham kiritish mumkin. Analitik-deskriptiv metodologiya hamda semantik-strukturalistik yondashuvga asoslangan ushbu tadqiqot to‘y bilan bog‘liq frazeologizmlarning tarjima masalalari va ekvivalentlik darajasini yoritishni maqsad qilgan. Shuningdek, bizning ishda to‘yga oid frazeologizmlarning konseptual ma’no sathlari, iyerarxik qatlamlarning shakllanish mexanizmlari va ushbu birliklarning diskursiv mohiyati tahliliy tadqiq etiladi.

Bizning ishimizda to‘yga oid frazeologizmlarning tarjima jarayonidagi semantik maydoni aniqlanadi hamda ularning ekvivalentlari tizimlashtiriladi; lisoniy lakunalar mavjud bo‘lgan taqdirda esa ularning ma’nolari tahliliy izohlanadi. Ushbu birliklar madaniy jihatdan chegaralangan fenomen sifatida talqin

qilinadi, chunki ularning interpretatsiyasi A.Shuts va Kasperken tomonidan ishlab chiqilgan "madaniy modellashtirish" (Schutz, 1972) kompetensiyasiga asoslanadi. To'yga oid frazeologizmlarning mazmuniy interpretatsiyasi bevosita madaniy kontekstga bog'liq. Har qanday frazeologik birlikning tarjimadagi adekvatligi muayyan ijtimoiy-madaniy muhit bilan belgilanadi. Binobarin, Ho qayd etganidek, "frazeologik birliklarni o'zining tarixiy-madaniy kontekstidan tashqarida to'laqonli tushunib bo'lmaydi" (Ho et al., 2019).

Mazkur faslda o'rganilayotgan birliklarning madaniy-konseptual xususiyatlarini ochib berish uchun ingliz, fransuz, nemis, ispan va o'zbek tillaridagi to'yga oid frazeologizmlar qiyosiy-semantik va madaniy tahlilga tortildi. Tadqiqot davomida ushbu iboralarning o'zaro mos ekvivalentlarini topish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Shuningdek, bizning tahlillar oddiy tarjimadan ko'ra, har bir frazeologizmning ortidagi tarixiy va ijtimoiy ildiz kabi chuqur ma'nolarga e'tibor qaratildi.

Masalan, ingliz tilidagi "invite black sheep of the family to the wedding" / oilaning qorako'zi / noqobil a'zosini to'yga taklif qilmoq frazeologizmining metaforik asosi oilaviy sadoqat va ijtimoiy me'yorlarga oid madaniy qarashlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ingliz tilida "black sheep" tushunchasi o'z guruhi yoki oilasi tomonidan isyonkor, omadsiz deb hisoblangan va jamiyatdan ma'lum ma'noda ajralgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, ushbu frazeologizmning o'zbek tilidagi frazeosemantik tahlili va tarjima variantlari keltirilgan. Ushbu ibora nominal metafora vazifasini bajaradi, bunda "qora qo'y" ramziy ma'noda "oq" / toza / standart podadan ajralishni anglatadi va asosiy ma'nosi – oila yoki guruhning obro'siz, g'alati yoki tartibsiz a'zosi. Qo'shimcha ravishda, keltirilgan frazeologizmning konnotatsiyasi odatda salbiy bo'lib, sharmandalik, noqulaylik yoki umumiy qoidalarga bo'ysunmaslikni bildiradi. Bundan tashqari, kontekstual qo'llanilishida "black-sheep brother"ni to'yga aytish haqida gap ketganda, so'zlovchi akaning / ukaning "dog' tushgan" obro'siga qaramay, uni taklif qilish ijtimoiy xavf yoki majburiyat ekanligini tan oladi.

Shu bilan birga, tadqiqotimizda to'y bilan bog'liq frazeologizmlarning teskari tarjima / back-translation tahlilini amalga oshirdik. Mazkur uslub asoschisi Richard Brislin 1970-yilda translatologiya va sotsiolingvistika sohalari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgan "Back-translation for cross-cultural research" / Madaniyatlararo tadqiqotlar uchun teskari tarjima nomli fundamental asarida (Brislin, 1970; 185–216) "yashirin" teskari tarjima / blind back-translation protokolini nazariy jihatdan asoslab bergan. Ushbu metodologik yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u original matndan bexabar bo'lgan mustaqil tarjimon tomonidan interpretatsiya qilingan matnni qayta manba tiliga o'girish / re-translation amaliyotini ko'zda tutadi. Hozirgi kunda mazkur algoritm verifikatsiya jarayonlarida, xususan, lingvistik ekvivalentlikni ta'minlash va terminologik aniqlikni tekshirishda "oltin standart" maqomiga ega. Tadqiqotimiz ob'ekti hisoblangan to'y frazeologizmlari tahlilida ushbu metoddan foydalanish, "black sheep" / noqobil avlod / jamoa isnoti kabi kognitiv-semantik birliklarning "madaniy konnotatsiyasi" maqsadli tilda qay darajada saqlanishini hamda translyatsiya jarayonidagi semantik yo'qotishlarni aniqlashda samarali lingvistik instrumental vazifasini o'taydi deb hisoblaymiz va R. Brislinning "Teskari tarjima" / Back-translation metodidan foydalangan holda, 1-jadvalda "black sheep" / noqobil avlod / jamoa isnoti iborasining tahlilini keltiramiz. Shuningdek, o'zbek tilida eng mos variantni topish uchun ushbu metaforik ma'noga ega frazeologizmning turli "tovlanishlari"ga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaymiz.

Ingliz tilida frazeologizm	O‘zbekcha tarjimasi	Teskari tarjimasi	Ma’nosi
Black-sheep brother (Stockdale, 2022; 139)	Yuzi qora aka / uka	The black-faced brother	Sharmandalik va isnodga urg‘u beradi.
	Suruvdan ayrilgan qo‘y	The sheep that left the flock	Yakkalanib qolganlik yoki isyonkorlikka urg‘u beradi.
	Oila “gulu” kesatiq	The “flower” of the family	Muammo keltiruvchi kimsaga nisbatan piching tarzida qo‘llanadi.
	Noqobil farzand/aka	The unworthy/ incapable brother	Rasmiy uslub; talablarga javob bermaslikka urg‘u beradi.

1-jadval. *Teskari tarjima / back-translation metodidan foydalangan holda “black sheep” / noqobil avlod / jamoa isnoti tahlili*

Shu bilan birga, ingliz tilidagi “Invite the black-sheep brother to the wedding” frazeologizmi o‘zbek tiliga kontekstdan kelib chiqib, “To‘yga o‘sha yuzi qora akani ham aytib qo‘ying” tarzida o‘girish mumkin. Ta’kidlash joizki, o‘zbek madaniyatida “yuzi qoralik” oilaga isnod va sharmandalik keltirganlik semasini ifodalaydi.

Mazkur frazeologizmning kognitiv-semantik tahlili uning “yakkalanish” izolyatsiya ma’nosidagi ekvivalentlarini ham ochib beradi. Masalan, “Suruvdan ayrilgan o‘sha ukani ham to‘yga chaqiring” misoli inglizcha sheep / qo‘y obraziga semantik jihatdan eng yaqin va obrazli muqobil hisoblanadi. Shuningdek, ushbu birlikning “nojo‘ya harakat” ma’nosi og‘zaki nutqda “To‘yga o‘sha tirishqi yoki noshoista akani ham taklif qiling” kabi variantlarda namoyon bo‘ladi.

E’tiborli jihati shundaki, ingliz tili tafakkurida “qo‘y” obrazi markaziy o‘rin tutsa, o‘zbek tilida oilaviy nufuz va ijtimoiy statusni tasvirlashda ko‘proq “yuz” metonimiyasi yoki “guruch / don” metaforalari qo‘llaniladi: yuzi qora / black sheep birligining eng kuchli semantik muqobili bo‘lib, axloqiy me’yorlarni buzgan yoki uyatga qolgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Bundan tashqari, guruch ichidagi kurmak: guruchning sifatiga putur yetkazuvchi begona donga nisbatan ishlatiluvchi ushbu ibora, butun guruh obro‘siga soya soluvchi shaxsni tasvirlash uchun munosib idiomadir. Sutdan chiqqan qora tuya, o‘z asliga butkul zid bo‘lgan, kutilmagan salbiy xususiyatga ega shaxsni ifodalovchi arxaik-poetik frazeologik birlikdir.

Binobarin, tarjima jarayonida tabiiylikni ta’minlash maqsadida, oilaga isnod keltirgan shaxsga nisbatan “yuzi qora”, shunchaki kutilgan umidlarni oqlamagan kishiga nisbatan esa “noqobil” leksemalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, ingliz tilidagi “a wedding can be a huge financial burden” frazeologik birikmasining frazeosemantik xususiyatlari aniqlanib, amalga oshirilgan tarjima tahlili havola etiladi. Mazkur frazeologizmda asosiy semantik yuk “financial burden” birikmasiga tushadi. Ushbu tushuncha o‘zbek lingvokulturologiyasida ham muhim o‘rin tutadi, zero to‘y xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida markaziy ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, o‘zbek tilidagi “to‘y” tushunchasi shunchaki nikoh marosimini emas, balki keng qamrovli ijtimoiy tadbirni anglatadi. O‘z navbatida, “financial burden” / moliyaviy yuk / og‘irlik iqtisodiy qiyinchilik yoki majburiyatni ifodalovchi turg‘un birikma hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘zbek tiliga o‘girishda kontekst va uslubiy talablardan kelib chiqadigan ekvivalentlar hamda variantlar mavjud bo‘lib, ular quyidagi 2-jadvalda jamlangan.

Ingliz tili	O‘zbekcha muqobil ekvivalent	Izoh
A huge financial burden (Stockdale, 2022, p. 185)	Katta moliyaviy yuk	To‘g‘ridan-to‘g‘ri usulidagi tarjima.
	Hamyonga og‘irlik qilmoq	Frazeologik ekvivalent (metonimiya).
	Katta chiqim / xarajat	Maishiy uslubda ko‘p qo‘llaniladigan variant.
	Belni bukadigan xarajat	Ekspressiv-emosional metafora.

2-jadval. *“A wedding can be a huge financial burden” frazeologik birikmasining kontekstual va uslubiy tarjima variantlari*

Mazkur metod tarjima aniqligini hamda semantik maydon barqarorligini tekshirishga xizmat qiladi. Tahlil obyekti sifatida “a wedding can be a huge financial burden” frazeologizmining bevosita va teskari / back translation tarjimalari tanlab olindi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girilganda, ushbu birlik “to‘y juda katta moliyaviy yuk bo‘lishi mumkin” shaklini oladi; teskari tarjimada esa u “a wedding can be a very large financial load/burden” tarzida qayta aks etadi. Garchi keltirilgan ekvivalentlarda denotativ ma’no to‘liq saqlangan bo‘lsa-da, ifoda uslubida ortiqcha rasmiylik seziladi.

Shu bilan birga, mazkur frazeologizmni badiiy-ekvivalent usulida “to‘y kishi hamyoniga og‘irlik qilishi mumkin” deb tarjima qilish ham o‘rinli. Bunda teskari tarjima / back translation “a wedding can put weight on one’s wallet” ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Ingliz tilidagi “financial burden” tushunchasi o‘zbek tilidagi “hamyonga og‘irlik qilish” idiomasiga semantik jihatdan to‘laqonli mos keladi.

Leksik-semantik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida to‘yga oid birliklar o‘ziga xos iyerarxik tuzilishga ega. Masalan, “to‘y xarajatlari” / wedding expenses umumiy iqtisodiy tushuncha hisoblansa, “sarpo-surug‘” / wedding preparations/costs faqat to‘y oldi xarajatlariga nisbatan qo‘llaniladigan milliy-madaniy xususiyatga ega birlikdir. Shuningdek, o‘zbek to‘ylarida moliyaviy yukning asosiy qismi aynan “to‘y dasturxoni” / the wedding feast tushunchasi bilan bog‘liq.

Umuman olganda, “financial burden” iborasini o‘zbek tiliga o‘girishda “iqtisodiy yuk” birikmasidan ko‘ra, “chiqim” yoki “hamyonga og‘irlik” kabi ifodalarni qo‘llash tarjima tabiiyligini ta’minlaydi. Zero, o‘zbek lingvomadaniyatida to‘y tushunchasi ko‘proq “baraka” va “chiqim” tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro muvozanat sifatida idrok etiladi.

Bundan tashqari, fransuz tilidagi “Se faire passer la corde au cou” (Oxford University Press, 2011) frazeologizmi o‘zining metaforik obrazliligi va tarkibiy semantik ko‘lami bilan alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda ushbu birlikning o‘zbek tilidagi frazeosemantik muqobillari va teskari tarjima / back translation tahlili amalga oshirildi. Mazkur frazeologizm denotativ jihatdan “turmush qurish” yoki “oila rishtalari bilan bog‘lanish” ma’nosini anglatsa-da, uning zamirida o‘ziga xos konnotativ komponentlar mavjud. Birlikning bevosita kalka usulidagi tarjimasi “bo‘yniga arqon soldirmoq” ma’nosini berib, bu yerda “arqon” leksemasi shaxs erkinligining cheklanishi hamda ijtimoiy-huquqiy ma’suliyatning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Garchi ibora vizual-ekspressiv jihatdan salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib tuyulsa-da, u bevosita nikoh instituti va oilaviy hayotga ishora qiladi. Ya’ni, nikoh jarayoni individning mutlaq erkinlikdan voz kechib, oilaviy majburiyatlar tizimiga integratsiyalashuv nuqtasi sifatida talqin etiladi. Ta’kidlash joizki, ushbu frazeologizm ko‘pincha hazilomuz yoki ironik modal bo‘yoqqa ega bo‘lib, insonning o‘z ixtiyori yoki muayyan deterministik omillar taqozosi bilan hayotini boshqa bir shaxs bilan bog‘lashini ifodalaydi.

Xususan, teskari tarjima metodi iboraning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini hamda

ekvivalentlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Quyidagi 3-jadvalda "Se faire passer la corde au cou" frazeologizmining teskari tarjima tahlili aks ettirilgan:

Til	Matn	Izoh
Fransuzcha	Se faire passer la corde au cou (Oxford University Press, 2011)	Asl shakli (metaforik).
O'zbekcha ekvivalent	Bo'yniga sirtmoq, arqon ilmoq	Ma'no jihatdan eng yaqin variant.
Teskari tarjima	Se mettre le licou / le joug au cou	Qayta tarjimada "arqon" tushunchasi joug bilan almashishi mumkin, bu esa nikohning "yuk/ma'suliyat" jihatini yanada kuchaytiradi.

3-jadval. *"Se faire passer la corde au cou" frazeologizmining teskari tarjima tahlili*

Shunday qilib ta'kidlash mumkinki, o'zbek lingvokulturasida to'y va nikoh tushunchalari asosan "baxt uyi", "muqaddas rishta" kabi ijobiy konnotatsiyalar orqali interpretatsiya qilinsa-da, xalq nutqida individ erkinligining cheklanishiga ishora qiluvchi "oyog'ini bog'lab qo'yish" kabi metaforik modellar ham mavjud.

Fransuz tilidagi tahlil qilinayotgan ibora esa mazkur "bog'liqlik" konseptini somatik kod (bo'yin qismi) va arqon obrazi vositasida yanada ekspressiv hamda dramatik tarzda namoyon etadi. Bayon etilgan fikrlar asosida shuni e'tirof etish joizki, mazkur frazeologizm asosi nikoh marosimi bilan quyidagi jihatlar orqali bog'lanadi: nikoh ahdnomasi: arqon – uzilmas kelishuv va sadoqat ramzi bo'lib, to'y kuni kelin va kuyov o'rtasida vujudga keladigan "ma'naviy rishta" bu yerda moddiy "arqon" obrazi orqali metonimik ko'chirilgan. Bundan tashqari, ijtimoiy status o'zgarishi: nikohdan so'ng shaxsning jamiyatdagi erkin harakati muayyan ijtimoiy-axloqiy chegaralarga tushadi. Fransuz lingvomadaniyatida ushbu ibora ko'proq erkaklarga nisbatan qo'llanilib, "uylanish orqali o'z erkini topshirish" mazmunini ifodalaydi.

Demak, "Se faire passer la corde au cou" – shunchaki nikoh jarayonini emas, balki oilaviy hayot bilan bog'liq mas'uliyat hamda shaxsiy erkinlikning qisman cheklanishini o'ziga xos fransuzcha ironiya bilan aks ettiruvchi frazeologik birlikdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, to'y bilan bog'liq frazeologik birliklar nafaqat lisoniy qatlam, balki milliy madaniyatning semantik va konnotativ axborotini o'zida mujassam etgan murakkab strukturadir. Mazkur birliklarning tarjimada maqsadli retsipient auditoriyasiga yo'naltirilgan lisoniy qoliplarga transformatsiya qilinishi, tilni universal kommunikativ vosita sifatida namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, to'y frazeologizmlarining tarjima masalalari va ulardagi ekvivalentlik darajasini tahlil qilish, til hamda tarjima fenomenlarining o'zaro uzviy, ontologik jihatdan determinallashgan dialektik aloqadorligini amaliy jihatdan isbotlaydi. Zero, to'y tushunchasining lingvokulturologik xususiyatlarini asl nusxadan maqsadli tilga adekvat o'tkazish – tarjimaning ontologik mohiyatini belgilovchi asosiy mezondir.

References:

1. Baker, M. (2006). *Translation and conflict: A narrative account*. Routledge. https://doi.org/10.4324/9780203099919
2. Brislin, R. (1970). Back-translation for cross-cultural research. *Journal of Cross-Cultural Psychology, 1*(3), 185–216.
3. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation*. Oxford University Press.
4. Chesterman, A. (Ed.). (1989). *Readings in translation theory*. Finn Lectura.
5. Halliday, M. A. K. (2001). Towards a theory of good translation. In E. Steiner & C. Yallop (Eds.), *Exploring translation and multilingual text production: Beyond content*. 13–18. Mouton de Gruyter.
6. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as a communicator*. Routledge.
7. Ho, S. S., Holloway, A., & Stenhouse, R. (2019). *Analytic methods' considerations for the translation of sensitive qualitative data from Mandarin into English*. SAGE Publications.
8. Hutauruk, B. S., Fatmawati, E., Al-Awawdeh, N., Oktaviani, R., Sobirov, B., & Irawan, B. (2023). A survey of different theories of translation in cultural studies. *Studies in Media and Communication, 11*(5), 161–171. https://doi.org/10.11114/smc.v11i5.6119
9. Masubelele, M. R. (2011). A critical analysis of domestication in Makhambeni's translation of Chinua Achebe's novel *No longer at ease*, 1960. *Literator, 32*(3), 105–123.
10. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). *The theory and practice of translation*. E. J. Brill.
11. O'Keeffe, B. (2019). Translation. In J. R. Di Leo (Ed.), *The Bloomsbury handbook of literary and cultural theory*. Bloomsbury Publishing.
12. Oxford University Press. (2011). *Oxford French minidictionary*. Oxford University Press.
13. Pym, A. (2014). *Exploring translation theories*. Routledge.
14. Robinson, D. (1997). *Western translation theory: From Herodotus to Nietzsche*. St Jerome.
15. Schulte, R., & Biguenet, J. (Eds.). (1992). *Theories of translation*. University of Chicago Press.
16. Schutz, A. (1972). *The phenomenology of the social world*. Northwestern University Press.
17. Stockdale, J. G., III. (2022). *A dictionary and thesaurus of contemporary figurative language and metaphor*. Routledge.
18. Van Leuven-Zwart, K. M. (1991). *Translation studies, the state of the art*. Rodopi.
19. Venuti, L. (1995). *The translator's invisibility: A history of translation*. Routledge.
20. Vermeer, H. J. (1989). Skopos and commission in translation action. In A. Chesterman (Ed.), *Readings in translation theory*. 173–200. Finn Lectura.